

TOG‘ HUDUDLARIDA ZAMONAVIY JANGOVAR HARAKATLARNI OLIB BORISHDA TAKTIK BO‘G‘INDAGI BO‘LINMALARNI AVTOTEXNIK TA‘MINOTINI TASHKILLASHTIRISHDAGI O‘RNI VA ROLI

Yusupov Alisher Xomitovich

*O‘R HX va MU serjantlar tayyorlash oliy maktabining moddiy-texnik
ta‘minot kafedrasi texnik tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi, O‘R QK xizmatchisi,
Samarqand*

“...Qurolli Kuchlarimiz turli sharoitlarda jangovar harakatlarni olib borishga doimiy shay holda va yetarli darajadagi jangovar qobiliyatga ega bo‘lishi, mamlakatimizning geostrategik joylashuvi va uning hududini geografik o‘ziga xosligini inobatga olgan holda quruqlikda va havo bo‘shlig‘ida ehtimoliy tajovuzlarga munosib zarba bera olishi kerak...”

Annotasiya: Zamonaviy janglar shuni ko‘rsatmoqdaki xar jang turi bo‘yicha tog‘ oldi hududlarda jangovar xarakatlarda taktik bo‘g‘indagi bo‘linmalardagi avtotexnik ta‘minotining tashkillashtirishdagi ko‘zga ko‘rinuvchi kamchiliklar bevosita uchrab turishi bizga ayondir. Birgina Tog‘li Qarabog‘dagi qurolli to‘qnashuvni misol tariqasida keltirib o‘tsak mubolog‘a bo‘lmaydi. Tog‘li Qarabog‘da qo‘llanilgan barcha turdagi qurol-aslaha va harbiy texnikalarni ta‘mirlash va tiklash tadbirlarida bir qancha qiyinchiliklarga duch kelgani bizga ayondir. Xozirda davom etayotgan Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi maxsus operatsiyada texnik ta‘minotini to‘g‘ri tashkil qilmaganligi uchun katta-katta bo‘linmalar o‘z manziliga yetib bora olmayotgani bunga misol bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: tog‘, avto-texnik ta‘minot, qurollar, dronlar, tahdid, artilleriya vositalari.

Avtotexnik ta‘minot – bu qismlarni avtomobil texnikalari va harbiy-texnik mulklar bilan o‘z vaqtida **to‘ldirish**; avtomobil texnikalarni foydalanishga doimiy **shay holatda ushlab turish** va uning turli vaziyatlarda ishonchli ishlashini **ta‘minlash** hamda qism va bo‘linmalarning jangovar vazifalarni bajarish jarayonida, yuqori jangovarlik qobiliyatini saqlash yo‘lida tez tiklash maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlar majmuyidir.

Qo‘shinlarni avtotexnik ta‘minotining bosh **vazifasi**, ularni avtomobil texnikalari mavjudligi va holati, ta‘minotiga ko‘ra yuqori jangovar shay va jangovar qobiliyatda ushlab hisoblanadi.

Bundan tashqari, texnik ta‘minot qo‘shilmalar, harbiy qismlar va bo‘linmalarni jangovar qobiliyati bilan bog‘lik bo‘lgan va dushman qo‘llagan



ommaviy qirg'in qurollari oqibatlarini bartaraf qilish, hamda qo'shilma, harbiy qismlar suv havzalari, joyning o'tuvchanligi, qiyin qismlarini va boshqa to'siqlarni kechib o'tishlarini ta'minlash bo'yicha vazifalarni hal qiladi.

Avtotexnik ta'minot tashkillashtirilishida quyidagilarhisobga olinadi:

joy xarakteri, maxsus operasiya o'tkazish hududda radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat;

yil davri, sutka vaqti va ob-havo;

maxsus operasiyaga o'tish vaqtidagi avtotexnik ta'minot bo'yicha vaziyat va uning o'zgarish ehtimolligi;

maxsus operasiyaga tayyorgarlik vaqtining mavjudligi;

maxsus operasiya mobaynida avtotexnik ta'minot bo'linmalarini ishlashga tayyorlash;

harbiy-texnik mulkning o'rnatilgan va zarur zahiralarini yaratish;

shaxsiy tarkibning texnik va maxsus tayyorgarligini o'tkazish;

maxsus operasiyada brigadani avtotexnik ta'minotini rejalashtirish.

Maxsus operasiyaga tayyorgarlik ko'rish mobaynida avtomobil texnikalarni ishlatishning umumiy qoidalariga amal qilishdan tashqari tog'li hududlarda mashinalarni ishonchli ishlashi quyidagilar orqali ta'minlanadi.

mashinalarni tog'larda harakatlanish xavfsizligini oshirish vositalar bilan butlash (maxsus tog' tormozlari, tirgaklar va b.)

boshqarish mexanizmlari va yuritmalarni, ayniqsa tormozlarni sinchkovlik bilan tekshirish va rostlash

dvigatellarning ta'minlash tizimlari va tormozlarni atmosfera havosining siyrakligi sharoitlarida qo'shimcha rostlash

mashinalarda yuzaga kelgan hattoki uncha muhim bo'lmagan nosozliklarni zudlik bilan bartaraf qilish

tog' va cho'l-qumli tabiiy joyda avtomobil texnikani ishlatish bo'yicha yo'riqnomada ko'zda tutilgan mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha ishlarni o'tkazish

tog' dovonlari va daralarda texnik yordam va evakuatsiya punktlarini tashkillashtirish

shaxsiy tarkibning maxsus tayyorgarligi.

Avtomobil texnikalarni tayyorlash jarayonida qo'yidagilar o'tkaziladi:

avtomobil texnikalarini texnik holatini tekshirish va tekshirish jarayonida aniqlangan nosozliklar va kamchiliklarni bartaraf qilish;

talab qilanayotgan yurish zaxiralarini yaratish;

navbatdagi texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni o'tkazish;

jangga oldindan tayyorgarlik ko'rish vaqtida – 1- TXX yoki 2-TXX;

qisqa muddat ichida jangga tayyorgarlik ko'rish vaqtida – KTXK va 1-TXX yoki 2-TXXni asosiy tekshirish va rostlash ishlari.



Dushman tomonidan ommaviy qirg'in qurollari qullanilganda, ishdan chiqqan qurol-aslaha va texnikalarni radioatsion, kimyoviy, biologik, muxandislik va texnik razvedka o'tkazilgandan so'ng amalga oshiriladi. Avtomobillarni zarba uchoqlaridan evakuatsiya qilish uchun barcha mavjud bo'lgan evakuatsiya vositalaridan, hamda jangni davom ettirishga jalb qilinmagan jangovar va boshqa mashinalardan foydalaniladi.

Bunda, asosiy e'tibor zarba uchoqlaridan evakuatsiya qilish va birinchi navbatda, maxsus operatsiyada xosil bo'lgan yoriqlardan yengil shikastlangan harbiy texnikalarni, hamda ekipaji (hisobi), haydovchi (mexanik-haydovchi)lari vafot qilgan yoki jangovar qobiliyatini yuqotgan avtomobillarni tezkor evakuatsiya qilishga qaratiladi.

Maxsus operatsiya mobaynida harbiy-texnik mulkni sarflanish va yuqotish o'rnini to'ldirish, avtomobillarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish extiyojini hisobga olgan holda, hamda hujumga utishda ta'mirlash vositalarini to'xtovsiz ishlashlashini ta'minlash uchun, uning zaxirasini yaratish amalga oshiriladi.

Maxsus operatsiya avtotexnik ta'minotini boshqaruvi odatda brigadani qo'mondonlik va front orti boshqaruv punktlaridan amalga oshiriladi.

Boshqarish uchun radio, simli va ko'chma vositalar foydalaniladi.

Avtomobil texnikalarini tog' sharoitlarida avtomobil texnikalarining ishlashi:

Mashinalarni ishlatishning quyidagi sharoitlari murakkab hisoblanadi:

havosi siyrak, atmosfera bosimi past, tabiiy joyning past-balandligi katta va sutka davomida haroratning keskin o'zgarishi kuzatiladigan tog'li hududlar; loygarchilik va yo'lsizlik.

Shuning uchun bo'linmalarni tog' sharoitida maxsus operatsiya mobaynida jangovar qobiliyatini va jangovar shayligini ushlab turish uchun avtomobil texnikalarning yuqori jangovar shayligini saqlash, bo'linmalarni harbiy texnik anjomlar bilan ta'minlash, qisqa muddat ichida talofat ko'rgan va nosoz avtomobil texnikalarni tiklash, hamda ularni o'z vaqtida safga qaytarish bo'yicha vazifalarni bajarish talab qilinadi.

Maxsus operatsiyada bu vazifalarni bajarish avtotexnik ta'minotning asosiy mazmuni hisoblanadi.

Avtomobil texnikalarini dengiz sathidan 2000 m va undan ortiq balandlikdagi tog'lardagi iqlim va yo'l sharoiti quyidagi xarakterli xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- atmosfera bosimining pastligi
- kun davomida haroratning keskin o'zgarishi
- yo'l sharoitining yomonlashishi

Atmosfera bosimining pasayishi va relief balandligi oshishi bilan havo zichligining pasayishi siqilishning pasayishiga va dvigatel silindrlarini to'ldirishning yomonlashishiga olib keladi, bu esa ishchi aralashmaning haddan



tashqari boyib ketishiga va karbyurator dvigatelining quvvatini 25 %ga pasayishiga olib keladi.

Oddiy sharoitlarga nisbatan dizel dvigatellarda yonish jarayonlari 30% yomonlashadi. Aralashmaning haddan tashqari boyitishi va yonish jarayonlarining yomonlashishi dvigatel qismlarida uglerod hosil bo'lishining ko'payishiga va dvigatel moyining yonmagan yoqilg'i bilan suyultirilishiga yordam beradi, bu esa dvigatel qismlarining emirilishini oshiradi.

Tik va uzoq cho'qqilar va tushishlar, tor yo'l va ko'p sonli keskin burilishlar bilan tavsiflangan qiyin yo'l sharoitlari tez-tez tormozlash va manevr qilishni talab qiladi, bu esa boshqaruv mexanizmlari, transmissiya bloklari va transport vositalari shassilarining haddan tashqari yuklanishiga va aşınmasına olib keladi.

Tormozlarni doimiy ishlatish tormoz barabanlari va kolodkalarining haddan tashqari qizib ketishiga, emirilishiga va ishonchliligining pasayishiga olib keladi.

Yuqori balandliklarda havo zichligi kam bo'lishi hamda tormozni intersiv ishlatilishi orqali avtomobilning havo tizimida bosimini kamayishiga olib keladi va natijada tormoz tizimi ishlamay qoladi.

Tog' tormozi bilan jixozlangan avtomobillarda, tog' tormozini ko'p ishlatish natijasida dvigatelni tez ishdan chiqishiga olib keladi.

Tog' sharoitlarida avtomobil texnikalarini boshqarishda kislorodning kamayishi natijasida haydovchida quyidagilar kuzatiladi:

- tez charchash
- bosh og'rig'i
- yurak og'rig'i
- ko'zning shilliq qavatining tirnash.

Tog'li sharoitda haydash xavfsizligini ta'minlash uchun transmissiya mexanizmlari, boshqaruv va tormoz tizimlarining holatini sinchkovlik bilan tekshirish, shuningdek, transport vositalarini o'tish qobiliyati va orqaga qaytishga qarshi vositalar bilan jihozlash kerak. Avtomobil texnikalarini tog' sharoitlarda ishlatganda, mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish masofasi tekis maydonlar uchun belgilangan me'yorlarga nisbatan, avtomobillar uchun 30-35% ga va zanjirli transport vositalari uchun 10-20% ga kamayadi. Texnik xizmat ko'rsatish vaqtida boshqaruv mexanizmlari va tizimlarini, ayniqsa tormoz tizimini diqqat bilan tekshirish va hatto kichik nosozliklarni darhol bartaraf etish talab etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki qo'shinlarda birinchi navbatda avtotexnik ta'minoti mutaxassislariga bo'linmalarni avtomobil extiyot qismlari bilan o'z vaqtida butlash va ta'minlash hamda haydovchilar tarkibini tog' sharoitida avtomobil boshqarishni o'rgatish.

FOYDALANGAN MA'NBALAR



1. Энциклопедия с дополненной реальностью военной автомобильной техники, издательства АСТ (V.V.likso, B.B Prokazov). Rossiya-2014.
2. S.M.Babusenko. Traktor va avtomobillar remonti. T., O'qituvchi.- 1990.
3. Техническая эксплуатация автомобилей. Под редакцией проф. E.S.Kuznetsov M: Transport, 1991., стр. 117-121, 132-137.
4. Shumik S.V. Основы технической эксплуатации автомобилей. Минск. ВСХ 1981., стр.209-212.

